



UDK:811

Arofat RIXSIYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
E-mail: arofat.rixsiyeva@mail.ru

ToshDO‘TAU professori, f.f.d S.Muhamedova taqrizi asosida

“KO‘NGIL” KOMPLEMENTLI FRAZELOGIZMLARNING PSIXOSEMANTIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi “ko‘ngil” komplementiga ega bo‘lgan frazeologik birliklarning psixosemantik modellari va ularning kognitiv-struktural tuzilmasi tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida olib borilib, frazeologizmlarning inson psixikasi, emotsional holati va ijtimoiy-madaniy kontekstdagi semantik jihatini ochib beradi. “Ko‘ngil” komponenti faqat individual emotsiyalarning ifodasi emas, balki milliy ongda shakllangan axloqiy-me‘yoriy qadriyatlar tizimining tildagi obrazli in‘ikosidir. Maqolada “xafalik” semantik yadrosi atrofida “ko‘ngli cho‘kmoq”, “ko‘ngli xira”, “ko‘ngli og‘rimoq” kabi iboralar psixosemantik yondashuv asosida darajaviy va metaforik struktura nuqtayi nazaridan modellashtiriladi.

Kalit so‘zlar: ko‘ngil, frazeologizm, psixosemantika, kognitiv model, lingvokulturologik yadro, metaforik modellashtirish, semantik darajaviylik.

THE PSYCHOSEMANTIC INTERPRETATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS CONTAINING THE COMPONENT “KO‘NGIL”

Annotation

This article analyzes the psychosemantic models and cognitive-structural organization of Uzbek phraseological units containing the “ko‘ngil” (soul/heart) component. The study is grounded in modern cognitive and linguocultural approaches, aiming to reveal the deep emotional, psychological, and axiological meanings embedded in such expressions. The “ko‘ngil” component does not merely reflect individual feelings but represents a conceptualized moral and cultural code shaped within the collective consciousness. Expressions such as “ko‘ngli cho‘kmoq” (heart sank), “ko‘ngli xira” (heart dimmed), and “ko‘ngli og‘rimoq” (heartache) are examined in relation to psychosemantic domains and modeled according to their metaphorical and gradational structures.

Key words: ko‘ngil, phraseologism, psychosemantics, cognitive model, linguocultural core, metaphorical modeling, emotional gradation.

ПСИХОСЕМАНТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «КЎНГИЛ»

Аннотация

В данной статье рассматриваются психосемантические модели и когнитивно-структурное устройство фразеологических единиц узбекского языка с компонентом «ko‘ngil» (душа, сердце). Исследование опирается на современные когнитивные и лингвокультурологические подходы и направлено на выявление глубоких эмоциональных, психологических и аксиологических смыслов, зафиксированных в таких выражениях. Компонент «ko‘ngil» отражает не только индивидуальные чувства, но и репрезентирует морально-культурные коды, сформированные в коллективном сознании. Выражения типа «ko‘ngli cho‘kdi» (падать духом), «ko‘ngli xira» (на душе пасмурно), «ko‘ngli og‘rimoq» (грустить) анализируются в рамках психосемантических зон и моделируются с точки зрения метафорической и градационной структуры.

Ключевые слова: ko‘ngil (душа/сердца), фразеологизм, психосемантика, когнитивная модель, лингвокультурное ядро, метафорическое моделирование, эмоциональная градация.

Kirish. Zamonaviy lingvistikada frazeologik birliklar nafaqat stilistik vosita, balki tilning kognitiv, emotsional va aksiologik yukini ko‘taruvchi semantik konstruksiyalar sifatida qaralmoqda. Ular sof grammatik yoki leksik birliklar majmuasidan farqli o‘laroq, tafakkurda shakllangan va ijtimoiy tajriba orqali boyigan konseptual tuzilmalarni mujassam etadi. Ayniqsa, insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari va emotsional tajribalarini ifodalashda frazeologik birliklar yuqori darajadagi semantik aniqlik, obrazlilik va ta’sirchanlikni ta’minlaydi. Ular tarkib

jihatidan sodda va semantik ko‘lami cheklangan oddiy leksik birliklariga qaraganda ancha keng ifoda imkoniyatiga va kuchli kommunikativ samaradorlikka ega.

Y.D.Apresyan fikricha, frazeologik birliklar madaniy qadriyatlarining til orqali ifodalanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular axloqiy, estetik va ijtimoiy xatti-harakat me‘yorlarini aks ettiruvchi madaniy kodning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori darajadagi emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lib, inson tajribasini kognitiv modellashtirishga xizmat qiluvchi

vositalar sifatida namoyon bo'ladi[1]. Ular bevosita tafakkurni emas, balki tafakkurning obrazli, kechinmaviy shakllarini ifodalaydi, bu esa ularning kognitiv ahamiyatini chuqurlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, frazeologizmlar ifodaning tayyorligi, obrazlilik darajasi, konnotativ ko'lam va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'langan ma'no qatlamlarining murakkab integratsiyasini ta'minlaydi. Tilni inson tafakkurining modellashtiruvchi vositasi sifatida baholagan V. fon Gumboldt ta'kidlaganidek, tillar o'rtasidagi farq faqat belgilar yoki tovushlar farqi emas, balki dunyoni idrok etishning turli-tuman shakllaridir[2].

O'zbek tilidagi "ko'ngil" komponentli konstruksiyalar, insonning murakkab ruhiy holatlarini ifodalashda yuqori darajadagi semantik sezgirlik, emotsional va obrazli ifoda kuchiga ega. Masalan, "ko'ngli xira", "ko'ngli cho'kdi" yoki "ko'ngli g'ash" kabi frazemalar emotsional tajribalarni faqat nominativ vositalar orqali ifodalash imkoniyatidan sezilarli darajada ustun turadi. Bunday birliklar shunchaki sinonimik ekvivalentlar emas, balki psixologik holatlarning kognitiv-konseptual modellari lisoniy jihatdan shakllantiruvchi vositalardir.

Shu asosda mazkur tadqiqotning obyekti sifatida "ko'ngil" komponentli frazeologik birliklar, predmeti esa ularning semantik strukturalari, konseptual asoslari va epistemologik funksilari belgilandi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda frazeologizmlar ilk bor leksik birliklardan semantik-epistemologik mezonlar asosida farqlanib, ularning tafakkurdagi o'rni, emotsional-referensial salohiyati va obrazli ifoda qudrati amaliy tahlillar asosida ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Tadqiqotning nazariy negizida G.Lakoff va M.Johnson tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv metafora nazariyasi yotadi. Bu nazariyaga ko'ra, inson ongidagi abstrakt tushunchalar, xususan, hissiy holatlar ko'pincha jismoniy tajriba asosida metaforik modellashtiriladi. Masalan, "ko'ngli cho'kdi" kabi frazemalar psixologik tushkunlik holatini tanaga oid harakat metaforasi orqali ifodalaydi. Bu kabi strukturalar "holat harakat tarzida" (state-as-motion) konseptual metaforasining yaqqol namunalaridir[6]. Tadqiqotda "ko'ngil" komponenti ishtirokidagi frazeologizmlarning fazoviy, vizual va taktil metaforalar orqali kognitiv konseptlarga qanday ulanayotgani semantik modellashtirish asosida tahlil qilinadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning tizimli o'rganilishi Sh.Rahmatullayev nomi bilan bog'liq. Uning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978) [9] va "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" (1992) [8] kabi ishlari frazemalarning leksik-semantik, grammatik va sintaktik qurilishini ilmiy tahlil qilishda asos bo'lgan. Bu yondashuvni keyinchalik B.Yo'ldoshevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari" (1993) [11] dissertatsiyasi kengaytirdi. Tilshunos frazemalarning uslubiy qatlam, emotsional-ekspressivlik va nutqdagi kommunikativ vazifalarini tizimli tahlil qilgan. A.Mamatov esa frazeologizmlarni milliy tafakkur, qadriyatlar va ijtimoiy ong bilan bog'liq holda tahlil qilib, lingvomadaniy va kognitiv yondashuvni ilgari suradi[7].

Y.D.Apresyan frazeologizmlarni "tilning emotsional-axloqiy va kognitiv kodlari" deb baholab, ularning madaniy-semiotik funksiyalarini chuqur ochib bergan[1]. Frazeologik birliklar nafaqat til birliklari, balki

axloqiy qadriyatlarini kodlovchi konseptual strukturadir. A.V.Kunin [5] esa frazeologik birliklarning funksional-semantik maydonlarda tahlil qilinishiga asos solgan bo'lib, bu tadqiqotda aynan "ko'ngil" komponenti atrofida shakllangan emotsional zonalarini aniqlashda uning metodikasidan foydalaniladi.

M.Xalikova[10] Z.Jumayeva[4], A.Jabborova[3], kabi o'zbek tadqiqotchilarining ishlarida esa frazemalarning milliy tafakkurdagi obrazlashuvi, axloqiy-estetik me'yorlarni ifodalash funksiyasi ochib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot "ko'ngil" komponenti ishtirokidagi frazeologik birliklarning semantik-kognitiv mohiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ushbu tahlil murakkab va ko'p qirrali metodologik yondashuvni talab etadi. Tadqiqotning uslubiy poydevori quyidagi nazariy va amaliy asoslarga tayangan holda qurilgan:

1. Kognitiv metafora nazariyasi asosidagi semantik modellashtirish

2. O'zbek tilshunosligidagi frazeologik metodologiyalar

3. Frazeologik birliklar — tilning kognitiv va madaniy kodi

4. Lingvomadaniy yondashuv

Tadqiqotda frazeologik birliklar madaniy konnotatsiyalarini tahlil qilish uchun lingvomadaniy va lingvokognitiv metodologiya qo'llaniladi.

5. Amaliy tadqiqot metodlari

Maqolada quyidagi aniq amaliy tahlil metodlaridan foydalaniladi:

Semantik tahlil — frazemalarning ichki struktura va ma'no darajalarini ajratish;

Kognitiv metafora tahlili — konseptual metaforalarni aniqlash va guruhlash;

Diskursiv-kontekstual tahlil — frazemalarning real nutqdagi funktsiyasi va ekspressivligi;

Qiyosiy frazeosemantik tahlil — bir semantik maydon doirasidagi frazemalarning o'zaro farqlari;

Lingvomadaniy interpretatsiya — frazemalarning madaniy-ma'naviy mazmunini tahlil qilish.

6. Ma'lumot manbalari va korpus

Tadqiqot korpusi sifatida quyidagi manbalar asos qilib olindi:

O'zbek tilining izohli va frazeologik lug'atlari;

Zamonaviy badiiy va publitsistik matnlar;

Navoiy, Ogahiy kabi klassik adabiyot vakillarining asarlari;

Jumayeva, Jumanazarova va boshqa zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan to'plangan frazeologik materiallar.

Bu manbalar frazemalarning zamonaviy va tarixiy qatlamlardagi semantik barqarorligini tahlil qilish imkonini beradi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

I. "Ko'ngil" komponentli frazeologizmlarning psixosemantik tasnifi va semantik tahlili. "Ko'ngil" komponentli frazeologizmlar insonning ruhiy va emotsional kechinmalarini ifodalashda o'ziga xos chuqur semantik qatlamlarga ega bo'lib, ular faqatgina his-tuyg'ularning farqlanishini emas, balki mazkur holatlarning darajasi, sabab-natija munosabatlari, vaqtinchalik yoki barqaror xarakteri kabi nozik semantik ottenkalarni ham aniq modellashtira oladi. O'zbek tilida "ko'ngil" komponentiga

ega bo'lgan frazeologik birliklar son jihatdan nihoyatda ko'p bo'lib, ular turli emotsional, axloqiy va ijtimoiy holatlarni ifodalovchi keng semantik maydonni qamrab oladi. Maqolamizda ana shu keng doirali birliklar orasidan aynan "xafalik" kontsepti bilan bog'liq frazemalar tanlab olinib, ularning ichki semantik strukturalari va darajaviy ifoda vositalari tahlilga markaziga olinadi. Tanlangan frazeologizmlar mazkur semantik markaz - "xafalik" maydoni atrofida guruhlanib, har bir guruh o'ziga xos emotsional holatlarning murakkab, ko'p qirrali darajalarini ifodalovchi birliklar orqali tavsiflanadi.

Quyida tahlil uchun tanlangan frazemalarni ko'rib o'tamiz:

Ko'ngli cho'kdi, ko'ngli ezildi, ko'ngli og'ridi, ko'ngli vayron bo'ldi

Bu turdagi frazemalarda emotsional holatning keskinlashuvi: kuchli ichki siqilish, ruhiy zaiflik yoki umidsizlik ifodalanadi. "Cho'kmoq" va "vayron bo'lmoq" kabi metaforalar kognitiv jihatdan tanish bo'lgan jismoniy voqealik – qulash, yemirilish, og'irlik orqali ruhiy inqirozni tasvirlaydi. Bu, Lakoff va Johnson tomonidan ilgari surilgan "kontseptual metafora" modelining "holat – fazoviy harakat" (state-as-motion) tipiga to'g'ri keladi[6].

Ko'ngliga og'ir botdi, ko'ngliga tegdi, ko'nglini og'ritdi, ko'ngliga qattiq botdi kabi frazemalar noxush xabar, kinoya, yoki o'tkir so'zlarning shaxsiy idrokda qattiq aks etishini bildiradi. "Botmoq" fe'li orqali sezilgan emotsional og'riq jismoniy sanchiq metaforasi orqali tushuntiriladi. Apresyan bu kabi obrazli birliklarni kognitiv jihatdan modellashtirilgan semantik barqarorlikka ega birliklar deb tasvirlaydi[1].

Ko'nglini sindirmoq, ko'nglini qora qilmoq, ko'nglini bo'g'moq frazemalari "ko'ngil" kontseptini ijobiy holat (yorug'lik, yaxlitlik, erkinlik) sifatida tasvirlaydi, undan og'ish esa uni sindirish, qoraytirish, bo'g'ish kabi obrazlar bilan anglatiladi. Bu strukturaviy modellashtirish tafakkurdagi axloqiy tasavvurlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'zbek xalq tafakkurida "ko'ngil" ijtimoiy, ma'naviy, estetik qiymatlar bilan bog'langan markaziy tushuncha ekanini ko'rsatadi.

Ko'ngli g'ash, ko'ngli xira, ko'ngli xijil qatorining "xafalik" psixosemantik maydoniga kirishi biroz munozartali ko'rinadi, albatta. Ammo tahlil jarayonida ushbu frazemalarning semantik fondi ham "xafalik" ni o'zida tashiy olishi namoyon bo'lganini hisobga olib, maydonning periferiy qismida qoldirishni lozim topdik. Ko'ngli g'ash, ko'ngli xira, ko'ngli xijil frazemalari inson ichki holatidagi barqarorlik yo'qolgan, lekin hali kuchli og'riqli emotsiyaga aylanmagan ruhiy noqulaylikni bildiradi. "Ko'ngli xira" frazemasida "xiralik" metaforasi orqali ruhiy yorug'likning pasaygani, hissiy sezgirlikning susaygani anglashiladi. Bu ifoda Apresyan ta'kidlagan "metaforik bevositalik" tamoyiliga mos ravishda inson ichki kechinmasini idrokiy darajada obrazlashtiradi[1]. "Ko'ngli g'ash" frazemasida ichki bezovtalik, tinchlikning buzilishi, ruhiy noqulaylik holatini bildiradi. Mazkur frazemaning mazmunida ruhiy notinchlik, hafsalasizlik holatlari ifodalanadi. Bu frazema "xafalik" maydoni bilan qisman kesishadi, lekin to'liq xafalik semantik yadrosiga kirmaydi. Uni psixosemantik chegaradosh holat sifatida tasniflagan ma'qul.

"Ko'ngli xijil" frazemasida noqulaylik, uyalish, yoki o'zini aybdor his qilish kontekstida ishlatiladi. Masalan,

biror noto'g'ri ish qilganidan yoki boshqa birovga noqulaylik tug'dirganidan "ko'ngli xijil" bo'ladi. Bu holatda inson o'zini notinch, ijtimoiy jihatdan noqulay his qiladi. "Ko'ngli xijil" xafalikning bevosita ifodasi emas, balki axloqiy-ijtimoiy bezovtalik holatini bildiradi. U ham xafalik bilan semantik yaqinlikka ega, lekin semantik yadrosi boshqa. "Ko'ngli g'ash" va "ko'ngli xijil" – yadro chegarasidagi frazemalar bo'lib, ular boshqa psixosemantik maydonlar bilan ham bog'langan (masalan, uyat, noqulaylik, siqilish).

II. "Ko'ngil" komponentining semantik strukturalarida kognitiv va lingvokulturologik markazlar

"Ko'ngil" komponentli frazeologizmlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bu birliklar nafaqat emotsional holatlarning yuqori darajadagi ifodalarini, balki ular ortidagi kognitiv kategoriyalarni ham aks ettiradi. Ular orqali til nafaqat hissiy kechinmani nomlaydi, balki uni mental model sifatida shakllantiradi. "Ko'ngil" komponenti faqat hissiyotlar markazi emas, balki madaniy tafakkurda markaziy semantik tayanch sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, bu frazeologizmlarni faqat emotsional reaksiyalar ifodasi sifatida emas, balki xalq ongining barqaror semantik kodlari sifatida baholash zarur.

Ushbu frazeologizmlarning asosiy semantik asoslaridan biri — metafora orqali idrok etish mexanizmidir. Masalan:

"Ko'ngli cho'kdi" → emotsional holatni pastlik bilan;

"Ko'nglini bo'g'di" → nafasni bo'g'uvchi kuch bilan;

"Ko'ngli xira" → yorug'likning pasayishi orqali anglatadi.

Bu frazemalar Lakoff va Johnson ta'riflagan "ontologik metafora", "fazoviy metafora" va "tana asosidagi metafora" modellariga to'liq mos keladi[6]. Masalan, "xira" metaforasi orqali ruhiy holat – yorug'lik (ko'rish) bilan, "sindi" metaforasi orqali esa ruh – qattiq jism sifatida tasavvur etiladi. Bu esa ko'ngilni ontologik obyekt sifatida idrok qilishga olib keladi.

O'zbek tilshunosligida "ko'ngil" komponenti bilan bog'liq frazemalarning ko'pligi uning lingvokulturologik dominantaga ekanini anglatadi. Boshqacha aytganda, bu birliklar til orqali xalqning ma'naviy axloqiy mezonlarini, qadriyatlarini va jamoaviy ruhini tasvirlaydi. Masalan, "ko'ngli qora" – faqat xafalik emas, balki ichki yovuzlik, ruhiy buzilish semantikalarini ham o'z ichiga oladi. "Ko'ngilga sig'maslik" – bu orqali insonning ichki noroziligi, qabul qila olmaydigan ruhiy holati anglashiladi. Bu frazemalar "ko'ngil"ni madaniyatimizda axloqiy kompas, barqarorlik belgisi va ruhiy poklik mezonini sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular til orqali kulturologik semantika shakllanishining yaqqol misolidir.

Frazeologizmlar tarkibidagi "ko'ngil" komponenti ko'plab birliklarda shunchaki hissiyot emas, balki ijtimoiy vaziyatlarga bo'lgan baho sifatida ham ishlaydi. Masalan, "ko'ngli sindi" – bu faqat ruhiy og'riq emas, balki insonlararo ishonchning buzilishi, "ko'nglini og'ritdi" – bu ibora odamiylik mezonini buzish nuqtasiga ishora qiladi, "ko'ngli to'ldi" esa — qanoat, rozilik, axloqiy qoniqish belgisidir.

Demak, "ko'ngil" semantikasi orqali faqat individual holat emas, balki jamiyatga nisbatan munosabatlar, ijtimoiy axloqiy muvozanat ham ifodalanadi.

Shu bois bu frazemalar sotsiolingvistik darajada ham ahamiyatlidir.

Tahlil qilinayotgan frazeologizmlarning ko'pchiligi emotsional holatlarning darajaviy semantikasini ifodalaydi. Bu jihatdan ular quyidagi ierarxiyani tashkil qiladi:

Frazeologizm	Semantik darajasi	Dominant metafora
Ko'ngli xira	Past ruhiy holat, noaniqlik	Yorug'lik/ko'rish
Ko'ngli cho'kdi	Chuqur tushkunlik, qulash	Fazoviy harakat
Ko'ngliga botdi	Keskin og'riq, tanqidiy ta'sir	Tana og'rig'i
Ko'nglini sindirdi	Ruhiy buzilish, ishonchning yo'qolishi	Moddiy obyekt sinishi

Bu model frazeologik birliklar orqali emotsional holatni aniqlik bilan ifodalash mumkinligini ko'rsatadi. Har bir frazema nafaqat darajani, balki ifodaning mazmunini doirasini ham belgilaydi.

“Ko'ngil” komponentli frazeologizmlar inson ruhiyatining eng nozik holatlarini lisoniy ifodalashga xizmat qiladi. Ular kognitiv tilshunoslikda asosiy o'rinni egallaydigan metaforik idrok, semantik darajaviylik, axloqiy-madaniy baholash kabi jarayonlarning lisoniy shaklidir.

Yuqoridagi tasnifdan ko'rinadiki, “ko'ngil” komponentli frazeologizmlar ruhiy holatlarning turli daraja va ko'rinishlarini ifodalashda ularning ichki sabab–natija aloqalarini modellashtirishda va hissiy–semantik tafovutni aniqlashtirishda o'ta boy vositadir. Ular leksik birliklar ifodalay olmaydigan emotsional murakkablikni, metaforik chuqurlikni va madaniy konnotatsiyani uzviy tarzda o'zida mujassamlashtiradi. Bu jihatlar ularni leksik birliklardan semantik-kognitiv samaradorlik jihatidan ustun qo'yadi.

Xulosa va takliflar. Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, “ko'ngil” komponentli frazeologik birliklar insonning ruhiy-kechinmaviy holatlarini ifodalashda yuqori

semantik aniqlik, emotsional tafovut va metaforik boylikka ega bo'lgan kognitiv birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali inson kechinmalarining murakkab psixologik bosqichlari, ularning ichki sabablari va holat darajalari obrazli vositalar yordamida aniq modellashtiriladi. Ayniqsa, “ko'ngli vayron bo'ldi”, “ko'ngli xira”, “ko'ngliga og'ir botdi” kabi frazemalarda fazoviy harakat, yorug'lik tusining o'zgarishi, fizik buzilish kabi metaforik modellar qo'llanilgan bo'lib, bu G.Lakoff va M.Johnson tomonidan ilgari surilgan kontseptual metafora nazariyasiga to'laonli mos keladi. Shunday ekan, frazeologik birliklar tilning faqatgina obrazlilik vositasi emas, balki inson tafakkurida shakllangan ruhiy holatlarning chuqur ma'nodagi konseptual strukturalarini ifodalovchi semantik tizimdir. Ular tilda ifoda etilayotgan holatlarning ichki mazmunini qatlamlarini ochib beradi, ularning emotsional, axloqiy va kognitiv jihatlarini kompleks tarzda yoritadi. Demak, “ko'ngil” komponentli frazeologizmlar nafaqat tilning ekspressiv boyligini ifodalaydi, balki u inson ongidagi emotsional va ma'naviy olamning lingvistik ko'rinishi sifatida ham nazariy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка (Москва: Языки русской культуры, 1995), С. 341.
2. Humboldt, Wilhelm von. On Language: On the Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of the Human Species (Cambridge University Press, 1999), p. 60.
3. Жаббарова А. Антропоцентрический фразеологический анализ единиц лексического строя языка. PhD diss., Жиззах давлат педагогика университети, 2022, 55 б.
4. Jumayeva Z. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi. Fil. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. Jizzax, 2021, 57 b.
5. Кунин, А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Москва: Высшая школа, 1996, 200 с.
6. Lakoff, George and Mark Johnson. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980, p. 242
7. Mamatov, A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2000, 56 b.
8. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. Toshkent: Universitet, 1992. 127 b.
9. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1978, 407 b.
10. Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков). АКД. – Ташкент, 1999. 26 с.
11. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori diss., 1993, 297.